



HUDUD MOLIYAVIY SALOHİYATINI BOSHQARISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Akramov G'olibjon Bahodir o'g'li

*Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi
«O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari
va muammolari» ilmiy-tadqiqot markazi*

Annotatsiya. *O'zbekistonda iqtisodiyot tarkibini diversifikatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirish, iqtisodiyotning barcha tarmoqlariga bozor mexanizmlarini izchillik bilan joriy etish, kambag'allikni qisqartirish va aholi farovonligini oshirish, raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlantirish, davlat kompaniyalarini transformatsiya qilish, davlatning iqtisodiyotdagi ishtirokini kamaytirish orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash hozirgi kunda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlarini tashkil etadi. Mazkur iqtisodiy islohotlar doirasida hududlarning moliyaviy salohiyatini oshirish, yalpi hududiy mahsulot hamini oshirish kabi masalalar muhim o'rin tutadi. Shundan kelib chiqqan holda mazkur maqolada hududlarning moliyaviy salohiyatini oshirishning nazariy jihatlari tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *iqtisodiy tizim, milliy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, salohiyat, budjet, davlat budjeti, mahalliy budjet, yalpi hududiy mahsulot, hududning moliyaviy salohiyati, aholi farovonligi.*

СПЕЦИФИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ РЕГИОНА

Акромов Голибжон Баходир угли

*Научно-исследовательский центр «Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана» при
Ташкентском государственном экономическом университете*

Аннотация. *Обеспечение устойчивого экономического роста в Узбекистане путем диверсификации структуры экономики и повышения ее конкурентоспособности, последовательного внедрения рыночных механизмов во все отрасли экономики, сокращения бедности и повышения благосостояния населения, ускоренного развития цифровой экономики, трансформации государственных компаний, снижения участия государства в экономике составляют приоритетные направления проводимых в настоящее время экономических реформ. В рамках данной экономической реформы важное место займут такие вопросы, как повышение финансового потенциала регионов, увеличение валового регионального продукта. Исходя из этого, в данной статье проанализированы теоретические аспекты повышения финансового потенциала регионов.*

Ключевые слова: *экономическая система, народное хозяйство, устойчивое развитие, потенциал, бюджет, государственный бюджет, местный бюджет, валовой региональный продукт, финансовый потенциал региона, благосостояние населения.*

SPECIFIC ASPECTS OF MANAGING THE FINANCIAL POTENTIAL OF THE REGION

Akramov Golibjon Bahodir ugli

Research center "Scientific bases and problems of development of the economy of Uzbekistan" under the Tashkent State University of Economics

Annotation. Ensuring sustainable economic growth in Uzbekistan by diversifying the structure of the economy and increasing its competitiveness, consistent implementation of market mechanisms in all sectors of the economy, reducing poverty and improving the welfare of the population, accelerated development of the digital economy, transformation of state-owned companies, and reducing state participation in the economy are the priorities of the economic reforms currently underway. Within the framework of this economic reform, issues such as increasing the financial potential of the regions and increasing the gross regional product will occupy an important place. Based on this, this article analyzes the theoretical aspects of increasing the financial potential of the regions.

Keywords: economic system, national economy, sustainable development, potential, budget, state budget, local budget, gross regional product, financial potential of the region, welfare of the population.

Kirish.

“O‘zbekiston-2030” strategiyasida 2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va “daromadi o‘rtachadan yuqori bo‘lgan davlatlar” qatoriga kirish, fiskal barqarorlikni ta‘minlash va davlat majburiyatlarini samarali boshqarish, hududlarni kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish, aholini arzon uy-joy bilan ta‘minlash darajasini oshirish kabi maqsadlar belgilab berilgan. Hududlarning moliyaviy salohiyatini oshirish, mahalliy byudjetlarning mustaqillik darajasini oshirish, hududlarda yangi “o‘sish nuqtalari”ni izlab topish va ularni rivojlantirish orqaligina bunday maqsad va vazifalarni ro‘yobga chiqarish mumkin bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida hududlarning moliyaviy salohiyatini boshqarishda ilmiy asoslangan yondashuvlardan foydalanishni ko‘zda tutadi. “Salohiyat”, “moliyaviy salohiyat” tushunchalarini aniqlashtirish borasida yondashuvlarning xilma-xilligi, shuningdek uni o‘zgartirish mexanizmining murakkabligi tadqiqot ishida nazariy va amaliy jihatlarini aks ettiruvchi tarkibiy unsurlarni ajratib ko‘rsatishni talab qiladi.

Bugungi kunda moliyaviy salohiyatning yetarlilik muammosi iqtisodiy tizimning muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Hududning moliyaviy salohiyati, undan foydalanish yoki foydalanmaslikdan qat‘iy nazar, o‘z ixtiyorida mavjud bo‘lgan turli xil resurslarga bog‘liq. Biroq, bugungi kunda hududning moliyaviy salohiyatini, shuningdek uning tarkibiy qismlarini baholashning yagona uslubiyoti mavjud emas.

Adabiyotlar sharhi.

Hududlarning moliyaviy salohiyatini oshirish orqali mahalliy budjetlarning daromad bazasini mustahkamlash masalalari xorijiy va mahalliy olimlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda, zero hududlar o‘rtasidagi tafovutni qisqartirmasdan turib, yaxlit tizim sifatida milliy iqtisodiyotni rivojlantirib bo‘lmaydi. Professor Xasanovning tahriri ostida nashr qilingan “Moliya va soliqlar” darsligida ham hududlarning moliyaviy salohiyatin mustahkamlash masalalariga to‘xtalib o‘tiladi. Mualliflar davlat budjeti barqarorligini ta‘minlashning muhim manbai sifatida hududiy moliyaviy siyosatni alohida ajratib ko‘rsatadilar (Xasanov va boshq., 2023). Tadqiqotchi Abduvoxidov budjetning barcha darajalari, tuzilmasi va budjet munosabatlarini rivojlantirish uchun molianing boshqarishni takomillashtirish zarurligini ta‘kidlaydi (Abduvoxidov, 2023). Tasniflash xususiyatlarini tahlil qilish jarayonida hududning moliyaviy salohiyatini amalga oshirish darajasiga qarab tavsiflovchi xususiyat taklif etiladi.

Mazkur xususiyat o'rganilayotgan hodisani erishilgan va istiqbolli imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish nuqtai nazaridan tavsiflashga imkon beradi. Tasniflash bilan bir qatorda hududning moliyaviy salohiyati unsurlarini aniqlashtirish talab qilinadi, zero ularning tavsiflashdagi g'alisliklar hudud moliyaviy salohiyatini samarasiz boshqarishga olib keladi. Hududning moliyaviy salohiyati unsurlarini tavsiflar ekanmiz, uning tuzilmasini shakllantirish borasida bir nechta yondashuvlar mavjudligini ta'kidlash lozim. Xususan, Olloqulova hudud moliyaviy salohiyatining quyidagi unsurlarini ajratib ko'rsatadi: byudjet salohiyati, aholining jamg'arma salohiyati va tadbirkorlik sub'yektlarining (moliya-kredit tashkilotlari va moliyaviy bo'lmagan korxonalar va tashkilotlar) investitsiya salohiyati. Ushbu yondashuvning alohida jihati hududiy moliyaviy salohiyat tarkibiga kredit salohiyatini alohida unsur sifatida kiritishda namoyon bo'ladi (Olloqulova, 2023).

Xuddi shunday qarashni tadqiqotchi Buranovanning ilmiy izlanishlarida ham ko'ramiz (Buranova, 2020), uning fikricha, hududning moliyaviy salohiyati quyidagi unsurlarni o'z ichiga olishi lozim:

- hudud iqtisodiyoti real sektorining moliyaviy salohiyati;
- uy xo'jaliklarining moliyaviy salohiyati;
- hududning byudjet salohiyati;
- kichik biznes salohiyati;
- hududning investitsion salohiyati.

Mazkur yo'nalishda ko'p sonli tadqiqotlar olib borilayotgan bo'lsa-da, hudud moliyaviy salohiyatini boshqarishning umim qabul qilingan kontseptsiyasi mavjud emas,

Tadqiqot metodologiyasi.

Maqolada ilmiy bilishning umumiy usullari: tizimli tahlil, analiz va sintez, induksiya va deduktsiya, taqqoslash, umumlashtirish, ma'lumotlarni yig'ish va guruhlash usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar muhokamasi.


Hududning moliyaviy salohiyatini samarali baholash borasida mavjud ilmiy yondashuvlar asosida hudud moliyaviy salohiyatini tasniflashning tarkibiy xususiyatlarini tahlil qilish va to'ldirish talab qilinadi. Hududning moliyaviy salohiyatini tasniflashda foydalaniladigan xususiyatlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligini hisobga olgan holda, hududning moliyaviy salohiyatining o'ziga xos muhim xususiyatlarini aks ettiruvchi yangi, avval tasniflashda foydalanilmagan jihatlardan foydalanishni taklif qilamiz:

- o'lchov birliklari;
- shakllanish sohalari;
- moliyalashtirish manbalari;
- mujassamlashtirish;
- foydalanish darajasi;
- salohiyatni ro'yobga chiqarish darajasi.

Iqtisodiy tizimlar moliyaviy salohiyatining yetarlilik darajasi dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Foydalanish yoki foydalanmaslik jihatidan qat'iy nazar hududning moliyaviy salohiyati uning tasarrufida bo'lgan resurslarning turli-tumanligiga bog'liq. Biroq, bugungi kunda hudud moliyaviy salohiyati va uning tashkil etuvchilarini baholashning yagona uslubiyoti mavjud emas.

Hududning moliyaviy salohiyatini samarali baholash borasida mavjud ilmiy yondashuvlar asosida hududning moliyaviy salohiyatini tasniflashning tarkibiy belgilarini tahlil qilish va to'ldirish talab qilinadi (1-rasm).

HUDUDNING MOLIVAVIY SALOHIYATINI TASNIFLASH




1-rasm. Hududning moliyaviy salohiyatini tasniflash¹

¹ muallif ishlanmasi

Umuman olganda, mazkur yondashuvni qo'llab-quvvatlagan holda, hudud iqtisodiyoti real sektorining iqtisodiy salohiyati va kichik biznes salohiyatini bitta umumiy "xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy salohiyati" ostida guruhlash o'rinli hisoblanadi, chunki, mazkur unsurlar bir - biri bilan chambarchas bog'liq hisoblanadi.

Keltirilgan dalillarga tayangan holda, hudud moliyaviy salohiyati tarkibida quyidagi asosiy unsurlarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq: byudjet salohiyati, hudud xo'jalik yurituvchi subyektlarining moliyaviy salohiyati va kredit salohiyati.

Shuni ta'kidlash kerakki, hududiy byudjet salohiyatini baholashda daromad bazasi sifatida faqatgina, o'z daromadlarini hisobga olishning o'zi yetarli emas. Shu sababli, hududning byudjet salohiyati tarkibida soliq tushumlari va soliqdan tashqari daromadlar, shuningdek subventsiyalardan tashqari beg'araz ko'makni alohida ajratib ko'rsatish lozim, chunki ular byudjet daromadlari bazasini shakllantirishda muhim manba sifatida xizmat qiladi (2-rasm).



2- rasm. Hudud moliyaviy salohiyatining asosiy unsurlari²

Hududda joylashgan, turli mulkchilik shaklidagi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy salohiyati o'zlarining bo'sh turgan va jalb qilingan moliyaviy resurslarini o'zida mujassamlashtiradi. Korxonalarining moliyaviy resurslari kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonini rivojlantirish, yangi ish o'rinlari yaratish va fuqarolarning kundalik ehtiyojlarini qondirish borasida mablag'larni qayta investitsiya qilish manbai bo'lib xizmat qiladi.

Ular hududiy birlik aholisining hayotiy faoliyatini bevosita ta'minlashning ayrim masalalarini birgalikda moliyalashtirishda ishtirok etadilar, shuningdek soliq bazasini shakllantirish va mahalliy byudjetlarning daromad qismini to'ldirish jarayonida qatnashadilar.


Hududning moliyaviy salohiyati tarkibiga kiruvchi kredit salohiyati asosiy unsurlardan biri hisoblanadi. Bu hududning kredit tizimining iqtisodiyotning real sektori rivojlanishi va faoliyatiga, asosiy vositalarga investitsiyalarga bevosita ta'siri bilan belgilanadi, bu esa o'z navbatida hudud moliya tizimining rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Hudud moliyaviy salohiyatini tasniflash va uning tarkibiy unsurlarini tavsiflash asnosida uning murakkab va serqirra kategoriya ekanligiga guvoh bo'lamiz, bu esa o'z navbatida hudud moliyaviy salohiyatini samarali boshqarishni zaruriy jarayon sifatida kun tartibiga qo'yadi.

O'tish iqtisodiyotiga xos bo'lgan keng ko'lamlı transformatsion jarayonlar, umumiy holda iqtisodiy munosabatlarni qayta tashkil qilish, hududiy rivojlanishning uzoq muddatli

² muallif ishlanmasi

strategiyalarini shakllantirishning ustuvorligini hisobga olgan holda, moliyaviy salohiyatni boshqarish ob'yektiv zarurat sifatida maydonga chiqadi. Moliyaviy salohiyatni boshqarish moliyaviy salohiyatni shakllantirishga qaratilgan va xo'jalik yurituvchi sub'yektlar tomonidan moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirish tamoyillari va usullari tizimi sifatida talqin qilinadi. Boshqa bir tomondan, moliyaviy salohiyatni boshqarish salohiyatdan foydalanish hajmi va samaradorligini oshirish, mamlakat va uning hududlarida iqtisodiy barqarorlik va muqimlikka erishish, fuqarolarning farovonligi va ularning hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan moliyaviy salohiyatning asosiy unsurlariga har tomonlama ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, hududning moliyaviy salohiyatini boshqarish har qanday holatda va turli tashqi va ichki omillarni hisobga olgan holatda amalga oshirilishi lozim, bu esa moliyaviy salohiyatni boshqarishning mantiqiy ketma-ketligini tasavvur qilishga imkon beradi (3-rasm).



3-rasm. Hududning moliyaviy salohiyatini boshqarishning mantiqiy tuzilmasi³

³ muallif ishlanmasi

Moliyaviy salohiyatni boshqarish sub'yektlari sifatida davlat va mahalliy hokimiyat organlari, moliya-bank tizimining nazorat idoralar organlari, korxonalar va tashkilotlarning strategik va tezkor boshqaruv bo'linmalari, aholi, o'zini o'zi boshqarish tashkilotlari va birlashmalari ishtirok qiladilar.

Hududning moliyaviy salohiyatini boshqarish milliy iqtisodiyotning muhim unsuri sifatida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi barqarorligini ta'minlash borasida foydalaniluvchi salohiyatning samaradorligini eng yuqori darajada oshirishga imkon beruvchi o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tamoyillarga asoslanishi lozim. Xususan, mazkur tamoyillar sirasiga quyidagilar kiradi:

- tizimlilik va majmuaviylik, moliyaviy jihatdan o'zini o'zi ta'minlashga asosiy e'tibor qaratilishi;
- mamlakat va hududlarning makro, mezo va mikro darajada rivojlanishining o'zaro uyg'unligi;
- tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashish;
- hududdagi barcha xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning moliyaviy resurslar va ularga bo'lgan ehtiyojlar muvozanatiga erishish;
- strategik moslashuvchanlik;
- davlat-xususiy va ijtimoiy sheriklik;
- vaqtincha bo'sh moliyaviy resurslarni jamlash;
- iqtisodiy xavfsizlik.

Bunday sharoitda hududning moliyaviy salohiyatini boshqarish jarayonining asosiy g'oyasi hudud moliyaviy siyosatini ro'yobga chiqarishdan iboratdir. Hudud moliyaviy siyosati samaradorligining asosiy mezonini hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning barqarorligi va aholi turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

Moliyaviy siyosat hududning moliyaviy salohiyatini boshqarish unsuri sifatida quyidagi ustuvorliklarni amalga oshirishga xizmat qilishi lozim:

- ishlab chiqarishni iqtisodiy rag'batlantirish;
- moliyaviy barqarorlikni ta'minlash;
- inflyatsion jarayonlarni cheklash;
- byudjet daromadlarini rag'batlantirish;
- soliq tizimini isloh qilish;
- moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanish;
- samarali moliyaviy nazorat tizimini yaratish;
- byudjet tizimini mustahkamlash;
- davlat qarzi ustidan nazoratni kuchaytirish;
- moliyaviy qonunchilikni takomillashtirish.

Moliyaviy siyosatni takomillashtirishning zaruriy shartlari sifatida quyidagilarni sanab o'tish mumkin:

- davlat va xususiy investitsiyalarni iqtisodiy o'sishning ustuvor yo'nalishlarida jamlash;
- inson kapitalini rivojlantirish, samarali va natijaga yo'naltirilgan ijtimoiy infratuzilmani yaratish, bu o'z navbatida investitsiyalardan foydalanish hajmi va samaradorligini oshirishni talab qiladi;
- hududlarda mavjud iqtisodiy rivojlanish markazlarini rivojlantirish va yangi "o'sish nuqtalari"ni yaratish, ma'muriy tuman va viloyatlarning iqtisodiy jihatdan qo'liqligiga barham berish.

Hududiy moliyaviy siyosatni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashning natijaviyligini hududiy tizimning moliyaviy barqarorligini tavsiflovchi ko'rsatkichlar to'plami dinamikasi asosida baholash taklif etiladi (Buranova, 2023). Ko'rsatkichlarni tanlashda statistika idoralari tomonidan shakllantirilgan, shuningdek turli reyting agentliklari tomonidan qo'llaniluvchi hududlarning moliyaviy-iqtisodiy holatini baholash usullari tahlil qilindi.

Tahlil natijasida quyidagi ko'rsatkichlar tanlab olindi:

1. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha yalpi hududiy mahsulot- hududiy iqtisodiy tizim faoliyatining aholi soniga nisbatan samaradorligini aks ettiradi.

2. Hududdagi korxonalarining umumiy sonida daromad ko'rib ishlovchi korxonalarining ulushi - iqtisodiyotning holati, uning diversifikatsiyalanganlik darajasi va tarkibiy iqtisodiy o'zgarishlarga chidamliligini tavsiflaydi.


3. Hududiy xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning yakuniy moliyaviy natijasi - hududning iqtisodiy holatini tavsiflaydi, real sektorning moliyaviy oqimlari hajmini belgilaydi.

4. Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi o'rtacha daromad - aholi turmush farovonligini aks ettiradi.

5. Asosiy vositalarga investitsiyalar -investitsiya muhitini, hududdagi investitsiya faolligi darajasini tavsiflaydi.

6. Hudud iqtisodiyotining umumiy daromadlari tarkibida soliq tushumlarining ulushi - hududning daromad salohiyati va uning moliyaviy mustaqilligi darajasini belgilaydi.

Yuqorida tilga olib o'tilgan ko'rsatkichlar hududning yaxlit moliyaviy salohiyati va uning tarkibiy bo'g'inlari sanalavchi soliq, byudjet, investitsion, kredit salohiyati, shuningdek, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar va uy xo'jaliklari salohiyatining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi (4-rasm).



4-rasm. Hududning moliyaviy-iqtisodiy holatini baholashning asosiy usullari⁴

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi bosqichda moliyaviy salohiyatni boshqarish borasida samarali yondashuvlar yetarlicha ishlab chiqilmagan, bu o'z navbatida hududiy rivojlanishning moliyaviy muammolari zarur darajada o'rganilmaganligi bilan izohlanadi. Shuni ta'kidlash kerakki, amalda asosiy e'tibor moliyaviy salohiyatning birdek muhim tarkibiy qismlarini (hududiy korxonalarining moliyaviy salohiyati, kredit salohiyati va boshqalarni) boshqarish usullarini takomillashtirish darajasi yetarlicha bo'lmagan bir sharoitda, asosiy e'tibor hududlarning byudjet sohasini o'rganishga qaratiladi.

⁴ adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan

Xulosa va takliflar.

Hududning moliyaviy salohiyati hudud iqtisodiyoti moliyaviy holatining qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan qabul qilingan boshqaruv qarorlariga munosabatini tavsiflovchi o'ziga xos ko'rsatkich hisoblanadi. O'z navbatida uning o'sishi moliyaviy siyosat va bu borada qo'llaniluvchi chora-tadbirlar samaradorligini ijobiy baholash, tez o'zgaruvchan muhit shart-sharoitlariga o'z vaqtida javob berish va hududning raqobatbar-doshligi va moliyaviy barqarorligini rivojlantirishga qaratilganligi bilan tavsiflanadi.

Shuni ta'kidlash lozimki, hudud moliyaviy salohiyatining to'ldirilgan tasniflash tuzilmasi mazkur kategoriyani yanada chuqurroq o'rganish, ya'ni hududning moliyaviy salohiyatini amalga oshirish darajasiga qarab tavsiflash – mavjud salohiyatni ro'yobga chiqarish borasida erishilgan natijalar va istiqbolli imkoniyatlarni bashoratlash imkonini beradi. Moliyaviy salohiyatning asosiy unsurlarini aniqlashtirish moliyaviy salohiyatni sifatli va miqdoriy baholash, shuningdek undan foydalanish samaradorligini tavsiflashga imkon beradi.

Hududning moliyaviy salohiyatini boshqarishning mantiqiy tuzilmasidan foydalanish o'zaro bog'liq va bir-birini taqozo etuvchi tamoyillar yordamida milliy iqtisodiyotning unsuri sifatida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining barqarorligini ta'minlashda foydalaniluvchi salohiyatning samaradorligini oshirishga imkon beradi. Hududning moliyaviy salohiyatini natijaviylik yondashuvi nuqtai nazaridan boshqarish bo'yicha tavsiya etilgan yo'nalishlar uning asosiy unsurlari samaradorligiga ta'sir qiluvchi boshqaruv usullarini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar / Литература / Reference:

Abduvoxidov A., Qodirova D., Obilov M. (2023) O'ZBEKISTONDA MAHALLIY BYUDJETLARNING DAROMADLAR BAZASINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI //Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. –T. 1. – №. 1. – C. 4-12.

Abduvoxidov, A., & Matkuliyeva, S. (2023). BUDJET SIYOSATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH. Iqtisodiy Taraqqiyot Va Tahlil, 1(8), 5–19. <https://doi.org/10.60078/2992-877X-2023-vol1-iss8-pp5-19>

Xasanov B.A., Xashimov A.A., Muxametov A.B., Abduvoxidov A.A., Urazmatov J.M., Akramov G'.B., Narbayeva M.A., Eshpulatov D.B. (2023) Moliya va soliqlar. darslik / prof. B.A.Xasanov tahriri ostida. – T.: "Iqtisodiyot dunyosi", – 564 b.

Буранова Лола Вахабовна (2020). Финансовый потенциал региона: понятие, сущность и значение для развития сурхандарьинской области// "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. No 4, iyul-avgust.

Буранова, Л., & Абдурахманов, А. (2023). ФИНАНСОВЫЙ ПОТЕНЦИАЛ КАК ОСНОВА ОЦЕНКИ ФИНАНСОВОЙ САМОСТОЯТЕЛЬНОСТИ РЕГИОНА. Приоритетные направления, современные тенденции и перспективы развития финансового рынка, 182–185. извлечено от <https://inlibrary.uz/index.php/financial-market-growth/article/view/19077>

Оллокулова, Ф. (2023). МАҲАЛЛИЙ БЮДЖЕТЛАР ДАРОМАДЛАР МАНБАИНИ ОШИРИШНИНГ ИСТИҚБОЛЛИ ЙЎНАЛИШЛАРИ. Iqtisodiyot Va ta'lim, 24(4), 172–177. https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss4/a27